

**2016 yil uchun standartlashtirish, metrologiya va
sertifikatlashtirish sohasidagi ishlar holati to'g'risida**

ANALITIK MA'LUMOTNOMA

O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi ("O'zstandart" agentligi) texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish va sifat tizimlarini boshqarish masalalari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining milliy organi hisoblanadi.

"O'zstandart" agentligining asosiy vazifalari:

- texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish sohalarda O'zbekiston Respublikasining "Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida", "Standartlashtirish to'g'risida", "Metrologiya to'g'risida", "Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risida", "Muvofiqlikni baholash to'g'risida"gi qonunlarni va boshqa qonunchilik va normativ-huquqiy hujjatlarni amaliy jihatdan amalga oshirishni ta'minlashdan;
- xalqaro standartlarni qo'llash asosida standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish, mahsulotning sifati va raqobatbardoshligini oshirish, jumladan sifat tizimini boshqarish va boshqa sohalarda yagona davlat siyosatini amalga oshirishdan iborat.

Standartlashtirish va texnik jihatdan tartibga solish.

2016 yil mobaynida 1946 ta standartlar va ularga o'zgartishlar davlat ro'yxatidan o'tdi. Ular orasida quyidagi quyosh energetikasi sohasidagi davlat standartlari ham mavjud:

- O'z DSt 3075:2016 «Fotoelektrik tizimlar. Atamalar va ta'riflar»;
- O'z DSt 3076:2016 «Elektr tarmoqqa ulanadigan fotoelektrik quyosh stansiyalari.

Stansiyalar, hujjatlashtirish, qabul qilish va tekshirishga doir minimal talablar». Ko'rsatilgan standartlar, elektr tarmoqqa ulanadigan fotoelektrik quyosh stansiyalarining qurilishi bo'yicha O'zbekiston spetsifikasini aks ettiruvchi o'zgartish va qo'shimchalar bilan birga, shuningdek standartlashtirish bo'yicha normativ hujjatlarni ishlab chiqish bo'yicha milliy talablar va qoidalarni hisobga olgan holda xalqaro standartlar asosida ishlab chiqildi.

2016 yil mobaynida normativ hujjatlarning Davlat fondi 1870 ta hujjat bilan to'ldirildi. Ulardan: 289 - ISO xalqaro standartlari, 686 - davlatlararo standartlari (GOST), 895 - Rossiya davlat standartlari (GOST R) va b.

Texnik jihatdan tartibga solish sohasida normativ-huquqiy bazani takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining "Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida"gi (23.04.2009 y.dagi O'zRQ-213-sonli) Qonuniga, undan so'ng qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Muvofiqlikni baholash to'g'risida"gi (04.10.2013 y.dagi O'zRQ-354-sonli) Qonuniga muvofiq belgilangan qonunni o'rnatish zaruratini ta'minlash uchun o'zgartishlar kiritildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 30 iyulda 207-son bilan tasdiqlangan "Texnik reglamentlarni ishlab chiqish dasturi", Vazirlar Mahkamasining tegishli Qarorlariga muvofiq 2016 yil birinchi yarim yillikda 3 ta umumiy texnik reglament qabul qilindi:

- "Ekspluatatsiya qilish shartlari bo'yicha qishloq xo'jaligi texnikasi konstruksiyalarining xavfsizligi to'g'risida" (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 18.03.2016 y.dagi 80-sonli qarori);
- "Donning xavfsizligi to'g'risida" (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 31.03.2016 y.dagi 99-sonli qarori);
- "Yengil sanoat mahsulotlarining xavfsizligi to'g'risida" (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 12.05.2016 y.dagi 148-sonli qarori);
- «Dori vositalarining xavfsizligi to'g'risida» (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 27.10.2016 y.dagi 365-sonli qarori);
- «Texnik vositalarning elektromagnit mosligi to'g'risida»gi umumiy texnik reglamenti. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 21.11.2016 y.dagi 389-sonli qarori).

"O'zstandart" agentligining 2016 yil 17 iyundagi MTR-6 sonli qarori bilan "Po'latdan qilingan sirlangan xo'jalik idish-tovoqlarning xavfsizligi to'g'risida"gi Maxsus texnik reglament tasdiqlandi. "O'zstandart" agentligining 2016 yil 17 noyabrdagi MTR-7 sonli qarori bilan "Don qayta ishlash mahsulotlari xavfsizligi to'g'risida"gi Maxsus texnik reglament tasdiqlandi. Umuman respublikada 2017 yil 1 yanvar holati bo'yicha 10 ta Umumiy texnik reglamentlar va 7 ta Maxsus texnik reglamentlar qabul qilindi.

Standartlar va o'lchashlar birliligini ta'minlash ustidan davlat nazorati

2016 yil davomida 296 ta mahsulot nomlanishi va 12 548 ta o'lchash vositasi birligi tekshirilgan, respublikaning 140 ta korxonasida standartlar talablariga rioya qilish va o'lchashlar birliligini ta'minlash ustidan davlat nazorati o'tkazildi.

Tekshiruv natijalari bo'yicha 139 ta korxonada standartlar buzulishi aniqlandi. Ma'muriy javobgarlikka 29 547,77 ming so'mga 144 ta mas'ul shaxs jalb etildi.

O'lchovlar birliligini ta'minlash

O'zbekiston Respublikasining "Metrologiya to'g'risida"gi Qonunini amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida 2016 yil mobaynida 2,253 mln. ta o'lchash vositalari qiyoslanib, ulardan 68,4 ming. (3,0 %) tasi yaroqsiz deb topildi va ularning qo'llanilishi to'xtatildi.

O'zbekiston Respublikasi hududiga yagona nusxalarda olib kirilgan va mavjud korxonalaridagi 27 583 dona o'lchov vositalari metrologik attestatsiyadan o'tkazildi.

2016 yil davomida 117 ta o'lchash vositasiga tasdiqlangan turni tan olish sertifikatlari tayyorlandi va rasmiylashtirildi, hamda 70 ta turdagi o'lchov vositalarining davlat sinovlari

o'tkazilib tasdiqlangan turini tan olish sertifikatlari rasmiylashtirildi hamda davlat reyestriga kiritildi.

O'zbekiston Respublikasi o'lchashlar birliligini ta'minlash tizimining normativ-huquqiy bazasini takomillashtirish bo'yicha o'tkazilayotgan ishlar doirasida "O'zstandart" agentligi Bosh direktorining 2016 yil 27 apreldagi 232-son bo'yrug'iga asosan "Tekshiruvdan (qiyoslashdan) o'tkazilishi lozim bo'lgan o'lchash vositalari turkumlarining Ro'yxati" tasdiqlandi va Adliya vazirligida ro'yxatga olindi (ro'yxat raqami 2782-son, 2016 yil 4 may).

Muvofiqlikni baholash

2017 yil 1 yanvar holatiga ko'ra respublikada "O'zstandart" agentligi tomonidan akkreditlangan:

- 130 ta mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish bo'yicha organ;
- 29 ta sifat menejmenti tizimini sertifikatlashtirish bo'yicha organ;
- 499 ta sinov laboratoriyalari;
- 38 ta shartnomalarni mustaqil ekspertiza qilish, yuk ortishdan oldin va/yoki yukni tushirish vaqtidagi inspeksiyani o'tkazish bo'yicha inspeksiya organi;
- 6 ta xodimlarni sertifikatlashtirish organi muvofiqlikni baholash sohasida xizmat ko'rsatmoqda.

Respublika hududlarida xizmat ko'rsatish doirasini kengaytirish maqsadida mahsulotlarni (xizmatlarni) sertifikatlashtirish bo'yicha 17 ta organ, sifat menejmenti tizimini sertifikatlashtirish bo'yicha 5 ta organ, 46 ta sinov laboratoriyalari (shu jumladan qurilish materiallari bo'yicha – 12 ta, elektrotexnika mahsulotlari bo'yicha – 10 ta, mashinasozlik bo'yicha – 8 ta, kimyo mahsulotlari bo'yicha – 10 ta, oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari bo'yicha - 4 ta va putur yetkazmasdan tekshirish bo'yicha – 2 ta) belgilangan tartibda akkreditlandi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.11.2015 yildagi 326-sonli Qarori bilan tasdiqlangan "Siqilgan tabiiy, suyultirilgan neft gazi yoki dizel va gzsimon yoqilg'i aralashmalarda ishlaydigan avtotransport vositalari xavfsizligi to'g'risida"gi Umumiy texnik reglament talablariga muvofiq gaz ballon uskunalarini sinash bo'yicha ishlarni o'tkazish maqsadida, joriy yil davomida respublika hududlarida 30 ta yangi sinov laboratoriyalari belgilangan tartibda akkreditlandi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 14 oktyabrdagi 292-sonli "O'zbekiston Respublikasining "Muvofiqlikni baholash to'g'risida"gi Qonunini amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorini va muvofiqlikni baholash bo'yicha organlar xodimlarini sertifikatlashtirish sohasida ishlar olib borish uchun "Muvofiqlikni baholash sohasida xodim sifatida ishtirok etishga da'vogar bo'lgan mutaxassislarni sertifikatlashtirish tartibi to'g'risidagi nizom" (O'zR AV tomonidan 30.12.2015 yilda 2748-son bilan ro'yxatga olingan) talablarini bajarish maqsadida, joriy yilda 3 ta xodimlarni sertifikatlashtirish organi qo'shimcha ravishda akkreditlandi.

O'lchash va sinash vositalarini metrologik attestatlash, sertifikatlashtirish, sinash tartib-taomillarini osonlashtirish maqsadida, "O'zstandart" agentligining "Metrologik xizmatlar ko'rsatish markazi" DK qoshida "O'lchash va sinash vositalarini sertifikatlashtirish organi" akkreditlandi.

2016 yil davomida O'zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish milliy tizimida 125 296 ta muvofiqlik sertifikatlari rasmiylashtirildi, jumladan xorijiy mamlakatlarning sertifikatlarini tan olish yo'li bilan 4 701 ta muvofiqlik sertifikatlari, muvofiqlik to'g'risidagi deklaratsiya asosida 453 ta sertifikat berildi.

Muvofiqlikni baholash sohasida amaldagi hujjatlarga muvofiqlashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan 18.03.2016 yilda 1465-2 son bilan ro'yxatga olingan "Mahsulotlarning xavfsizlik talablariga muvofiqligini deklaratsiya qilish tartibi to'g'risidagi nizam"ga o'zgartishlar kiritildi.

Majburiy sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan mahsulotlar ro'yxatiga sport jihozlari va anjomlarining kiritilishini nazarda tutadigan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 14 iyundagi 202-sonli "Sifati va foydalanish xavfsizligi xalqaro standartlarga javob beradigan sport jihozlari va anjomlarini ishlab chiqarishni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq "O'zstandart" agentligi tomonidan sport jihozlari va anjomlarini sertifikatlashtirishni tashkillashtirish bo'yicha tashkiliy va texnik choralar ko'rilmogda.

Sifatni boshqarish tizimlari

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 19.10.2015 yildagi 298-sonli «2020 yilgacha bo'lgan davrda Sifat milliy infratuzilmasini rivojlantirish dasturini tasdiqlash to'g'risida»gi Qarori, hamda avval qabul qilingan hukumat qarorlarini bajarish maqsadida 2017 yil 1 yanvar holatiga ko'ra respublikaning 4181 ta korxonasida xalqaro standartlarga muvofiq menejment tizimlari joriy qilindi va sertifikatlashtirildi hamda 4313 ta muvofiqlik sertifikati berildi. Shundan:

- 3989 ta ISO 9001 talablariga muvofiq;
- 55 ta ISO 14001 talablariga muvofiq;
- 69 ta OHSAS 18001 talablariga muvofiq;
- 83 ta ISO 22000 talablariga muvofiq;
- 38 ta ISO 16949 talablariga muvofiq;
- 9 ta GMP talablariga muvofiq;
- 10 ta ISO 50001 talablariga muvofiq;
- 60 ta integratsiyalashgan menejment tizimiga muvofiq.

Muvofiqlikni baholash sohasida normativ-huquqiy bazani takomillashtirish bo'yicha ishlar doirasida "O'zstandart" agentligi tomonidan "Menejment tizimini sertifikatlashtirish tartibi

to'g'risida nizom" ishlab chiqildi va tasdiqlandi. (O'zR AV tomonidan 16.01.2016 yilda 2754 son bilan ro'yxatga olindi).

Xalqaro hamkorlik

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 15 maydagi PQ-2343-sonli «2015-2019 yillarda iqtisodiyot tarmoqlarida va ijtimoiy sohada energiya sig'imini qisqartirish va energiya tejavchi texnologiyalarni joriy qilish bo'yicha choralar dasturi to'g'risida»gi Qarorini bajarish doirasida 2015 yilning 20 oktyabrida «O'zstandart» agentligi Bosh direktori va Xalqaro elektrotexnika komissiyasi (IEC) Bosh kotibi tomonidan IEC ishtirokchi a'zo davlatlar dasturida O'zbekiston Respublikasining ishtirok etishi uchun majburiyatlarni olish to'g'risida hujjat imzolandi va respublikaning ishtiroki uchun yanada ustuvor IEC texnik qo'mitalari aniqlandi. "O'zstandart" agentligining qabul qilgan majburiyatlariga muvofiq joriy yilning birinchi choragida energiyani tejash va energosamaradorlik sohalarida milliy standartlarni ishlab chiqishda foydalanish uchun elektrotexnika mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi korxonalar so'rovnomalari bo'yicha 110 ta IEC standartlari kelib tushdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 4 apreldagi PQ-2514-sonli qarori bilan "O'lchash vositalari xilini tasdiqlash, metrologik attestatlash, qiyoslash va kalibrlash maqsadida sinov natijalarini o'zaro tan olish to'g'risidagi bitim" tasdiqlandi. Qaror 2016 yil 11 apreldan kuchga kirdi va MDH a'zo-davlatlar doirasida sinov natijalarini o'zaro tan olish yo'li bilan import qilinadigan o'lchash vositalarini metrologik attestatlash, qiyoslash va kalibrlash bo'yicha tartib-taomillarni yengillashtirishga undadi.

Transport vositalari turini tasdiqlash va rasmiylashtirish tartib-taomili va avtotransport vositalari uchun muvofiqlik sertifikatlarini tan olish bo'yicha masalalarni hal etish maqsadida, 1992 yil 13 martdagi Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish sohasida kelishilgan siyosat olib borish to'g'risidagi bitim doirasida joriy yilning aprel oyida Ostona shahrida (Qozog'iston Respublikasi) "O'zstandart" agentligi, "O'zavtosanoat" AK va "JV MAN Auto-Uzbekistan" MChJ QK vakillaridan tarkib topgan ishchi guruh Qozog'iston Respublikasi Texnik jihatdan tartibga solish va metrologiya qo'mitasi rahbariyati hamda mutaxassislari bilan ish yuzasidan uchrashuv bo'lib o'tdi. Ushbu masala muhokamasi natijalari bo'yicha Qozog'iston Respublikasi Texnik jihatdan tartibga solish va metrologiya qo'mitasi Raisi o'rinbosariga Yevrosiyo iqtisodiyot ittifoqi (YeAES) mamlakatlari bozoriga kirishni ta'minlaydigan "JV MAN Auto-Uzbekistan" MChJ QK og'ir yuk ortiladigan avtotransport vositalari (samosval) uchun seriyali ishlab chiqarishga (3 yil) turni ma'qullash" topshirildi.

Standartlashtirish sohasidagi xalqaro hamkorlik doirasida "O'zstandart" agentligi delegatsiyasi joriy yilning iyun oyida Jeneva shahrida (Shveysariya) o'tkazilgan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yevropa Iqtisodiy Komissiyasi (YeEK OON)ning Qishloq xo'jaligi sifat standarti

bo'yicha ishchi guruhi Quruq va quritilgan mahsulotlar uchun standartlarni ishlab chiqish bo'yicha maxsus seksiyasi 63-yig'ilishida ishtirok etdi.

"O'zstandart" agentligi mutaxassislari 2016 yilning 9-14 sentyabr kunlari Xitoyning Pekin shahrida bo'lib o'tgan Xalqaro Standartlashtirish Tashkiloti – ISO ning 39-Bosh assambleyasida ishtirok etishdi. 2016 yilning 12-13 sentyabr kunlari bo'lib o'tgan yig'ilishda standartlashtirishda davlat ishtiroki, davlatlararo hamkorlik, konsensus yo'li bilan qarorlar qabul qilinishi va tajriba almashish bilan bog'liq bo'lgan strategik savollar ko'rib chiqildi.

"Xitoy ISO haftaligi" doirasida "O'zstandart" agentligi vakillari rivojlanayotgan davlatlar masalalari bo'yicha qo'mita - DEVCO, texnik boshqarish Kengashi yig'ilishi, hamda ochiq sessiyalarda ishtirok etishdi.

MDH a'zo-mamlakatlarning davlatlararo standartlashtirish bo'yicha o'tkazilgan ishlar doirasida "O'zstandart" agentligi delegatsiyasi joriy yilning dekabr oyida Moskva shahrida (Rossiya Federatsiyasi) o'tkazilgan MDHning Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish davlataro kengashi (MGS)ning 50-yig'ilishida ishtirok etdi. Yig'ilishda texnik jihatdan tartibsiz solish, davlatlararo standartlashtirish, metrologiya, muvofiqlikni baholash, akkreditatsiyalash, MDH a'zo-mamlakatlarda texnik reglamentlar, normalar va qoidalar talablariga rioya qilish ustidan nazorat qilish va tekshirish sohasidagi qilinadigan kelgusi ishlarga tegishli 20 dan ortiq masalalar muhokama qilindi.

Koreya xalqaro hamkorlik agentligining (KOICA) grant mablag'lari hisobiga moliyalashtiriladigan "Zamonaviy AKT joriy qilish yo'li bilan "O'zstandart" agentligining imkoniyatlarini oshirish va Rivojlanishning bosh rejasini ishlab chiqish" qo'shma loyihasini amalga oshirish doirasida Koreya ijroiya tadqiqot missiyasining "O'zstandart" agentligiga bir necha ishchi tashriflari bo'lib o'tdi. Koreya xalqaro hamkorlik agentligi vakillari, Koreya testdan o'tkazish va sertifikatlashtirish kompaniyasi va AT Konsalting bo'yicha Koreya kompaniyasi ekspertlaridan iborat bo'lgan missiya mutaxassislari "O'zstandart" agentligi mutaxassislari bilan birgalikda faoliyatning barcha yo'nalishlari bo'yicha "O'zstandart" agentligi o'rganib chiqildi va loyiha bo'yicha konseptual takliflar tayyorlandi.